

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINI O'QUVCHILAR O'QISH SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHGA METODIK TAYYORLASH.**Ergasheva S.T.**

*O'zbekiston milliy pedagogika universiteti o'qituvchisi,
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quvchilar o'qish savodxonligini rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik tayyorgarligi masalalari yoritilgan. Maqolada zamonaviy ta'lim tizimi talablari, interfaol metodlar va gumanistik yondashuv asosida shakllanayotgan metodik kompetensiyalar tahlil qilingan. Shuningdek, o'qituvchilarning o'quvchilarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish va matn bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni ham ochib berilgan. Natijada, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini sifatli metodik tayyorlash ularning kasbiy mahoratini va ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishning muhim omili ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, o'qish savodxonligi, metodik tayyorgarlik, interfaol metodlar, gumanistik yondashuv, mustaqil fikrlash, kasbiy kompetensiya.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы методической подготовки будущих учителей начальных классов к развитию читательской грамотности учащихся. Анализируются современные требования к системе образования, интерактивные методы обучения и гуманистический подход в формировании методических компетенций педагога. Отмечается роль учителя в развитии у учащихся навыков самостоятельного мышления, анализа и работы с текстом. В результате обосновано, что качественная методическая подготовка будущих учителей начальных классов является важным фактором повышения их профессионального мастерства и эффективности учебного процесса.

Ключевые слова: начальное образование, читательская грамотность, методическая подготовка, интерактивные методы, гуманистический подход, самостоятельное мышление, профессиональная компетенция.

Abstract. This article discusses the methodological preparation of future primary school teachers for developing students' reading literacy. It analyzes modern educational requirements, interactive teaching methods, and the humanistic approach in forming teachers' methodological competencies. The role of teachers in fostering students' independent thinking, analytical skills, and text comprehension is highlighted. As a result, the study substantiates that high-quality methodological training of future primary school

teachers is a crucial factor in enhancing their professional competence and the overall effectiveness of the educational process.

Keywords: *primary education, reading literacy, methodological preparation, interactive methods, humanistic approach, independent thinking, professional competence.*

Bugungi kunda boshlang'ich ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarning sifatli metodik tayyorgarligi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarda o'qish savodxonligini rivojlantirish pedagogik jarayonning eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu bosqichda o'qituvchilar o'quvchilarning asosiy bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ularni savodxonlikka, fikrlash va mustaqil o'qishga o'rgatish vazifasini bajaradilar. Shu sababli, o'qituvchilarni metodik jihatdan to'g'ri va samarali tayyorlash muhimdir.

Shu bilan bir qatorda ta'lim-tarbiya jarayonini rivojlantirish, zamonaviy va xalqaro talablarga javob bera oladigan kadrlarni tayyorlash, ularning mustaqil ta'lim olishi uchun uchun keng imkoniyat yaratib berishga doir qator muammolarga to'qnash kelamiz. Qolaversa, mavjud yangiliklar ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun metodik ta'minotni takomillashtirishning yangi yo'nalishlarini ochilishiga sabab bo'lmoqda.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quvchilar o'qish savodxonligini rivojlantirishga metodik tayyorgarligini takomillashtirishning asosi sifatida jamoa, guruhlar, yakka tartiblari ko'rsatib o'tilgan [108].

Ya'ni oliy ta'limda o'qitish jarayonining yangi shakl va usullari ishlab chiqilmoqda. Zamonaviy ta'lim mazmuni, qonuniyatlari, tamoyillari, metodlari, vositalari, o'qitish shakllari va uni nazorat qilish usullari bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari metodik tayyorgarligini takomillashtirishning asosiy omillari hisoblanadi.

O'qitish, ta'lim-tarbiya berish jarayoni ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan tizimli bilim va ko'nikmalar bilan qurollantirishdir. Ta'lim o'qitishning natijasi hisoblanadi. Ta'lim oluvchilarni o'qitish sharoitida zamonaviy metodlarni qo'llash natijasida mustaqil fikrlash, tahlil qilish, zaruriy xulosalar chiqarish, o'z fikrini erkin bayon qilish, uni asoslangan holda himoya qila bilish, faol muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nikmalari rivojlanib boradi. Bu metodlar ta'lim oluvchilar o'rtasidagi faollikni oshirish orqali shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga, ta'lim oluvchilarning o'zlashtirishini faallashtirish, hamda interfaol metodlarni qo'llash orqali mashg'ulotlar samaradorligini oshirish uchun asosiy omillar sanaladi.

Keyingi yillarda jahon standartlari asosida o'qitishni tashkil etish maqsadida zamonaviy o'qitish metodlaridan foydalanishga e'tibor qaratilmoqda. Zamonaviy metodlarni ta'lim

jarayonida bevosita qo‘llash va o‘qitish umumiy ta‘lim samaradorligini oshiradi. Interfaol usullardan borgan sari keng foydalanilayotganini hamda samara va sifat ko‘rsatkichlarini rivojlanib borayotganini xalqaro tajribalardan ham ko‘rish mumkin. Ta‘limiy jarayonda zamonaviy o‘qitish metodlarini qo‘llash natijasida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining nafaqat o‘quvchilar o‘qish savodxonligini rivojlantirishga metodik tayyorgarligini takomillashtirishga, shu bilan birgalikda mustaqil bilim olish va fikrlashini o‘stirish, mavjud muammoni mustaqil tahlil qila olish, o‘z fikrini mustaqil bayon qilish va fikrlarini aniq ma‘lumotlarga asoslagan holda himoya qila bilish, savol-javob, bilimlarni o‘zlashtirish faolligini muntazam ravishda oshirib borishga, yechim yakunida xulosalar chiqarishga, bahs olib borish ko‘nikmalarini rivojlantirishga va albatta, olingan bilimlarni pedagogik faoliyatida samarali qo‘llashga yordam beradi.

Boshlang‘ich ta‘lim konsepsiyasida quyidagi fikrlar bildirilgan: Boshlang‘ich ta‘lim jarayoni, birinchi navbatda, gumanizm prinsipi asosida tashkil etilishi kerak. Chunki O‘zbekiston Respublikasining ta‘lim sohasidagi siyosati o‘zining insoniylik xarakteriga egaligi bilan ajralib turadi. Ushbu siyosat, birinchi navbatda, umuminsoniy qadriyatlarga asoslanishga yo‘naltirilgan. Insoniylik prinsipi asosida tashkil etiladigan boshlang‘ich ta‘lim jarayoni o‘quvchilarning erkin rivojlanishlarini ta‘minlashi kerak.

Butun dunyoda ro‘y berayotgan integrallashuv va globallashuv jarayoni bilan bog‘liq holda ta‘limning mazmun-mohiyati ham o‘zgarmoqda. Shuning uchun ham boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari oldiga o‘ta muhim vazifa – o‘z-o‘zini anglash salohiyati, yangi intellektual darajaga ega bo‘lgan mustaqil fikrlovchi shaxsni shakllantirish vazifasi qo‘yilmoqda. Bunday o‘quvchilar nazariy tafakkur yuritish, ijodiy faoliyatni amalga oshirish, o‘z xatti-harakatlari va faoliyatini mustaqil boshqarish imkoniyatiga ega bo‘lishlari kerak. Shu ma’noda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish masalasi ayniqsa dolzarb sanaladi. Chunki boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini maqsadga yo‘naltirilgan holda o‘qitish va tarbiyalash jarayoni aynan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilaridan boshlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev. (2020). Ilm-ma‘rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish — mamlakat taraqqiyotining muhim omilidir. Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti.
2. Qodirova, F. R. (2018). Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining metodik tayyorgarligini takomillashtirish yo‘llari. Toshkent: TDPU nashriyoti.

3. Xolmatova, M. (2021). Boshlang‘ich ta‘limda o‘qish savodxonligini shakllantirish metodikasi. Ta‘lim taraqqiyoti jurnali, №3, 45–52.

4. Ergasheva, S. T. (2024). Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘qish savodxonligini takomillashtirishda innovatsion yondashuvlar. Boshlang‘ich ta‘lim va innovatsiyalar, №2, 67–73.